

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№10

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 59 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-oktyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....	18
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	24
Sabirova Oysuluv Shonazarovna	
KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI	30
Musayeva Shoirazimovna	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKTSIONAL JIHATI.....	35
Alabayev Sobitxon	
MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI	40
Zakirov Ansabxon Akaidinovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	48
Саидахмедова Аида Мирзаевна	
KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH	55
Mirzayev Ozod Furkatovich	



KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH



Mirzayev Ozod Furkatovich

Renessans ta'lim universiteti "Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti

ORCID: 0009-0000-5258-7526

Email: abubakrm90@gmail.com

Annotatsiya: Korxona faoliyati samaradorligini ta'minlash bilan bog'liq muammolarni hal etish, asosan, xaridorlar, mijozlar hamda boshqa xo'jalik subyektlari va jismoniy shaxslar bilan hisob-kitoblarda debitor qarzlarni hisobga olish metodologiyasini tashkil etish va undan samarali foydalanish darajasiga bog'liq. Ushbu maqolada iqtisodiy munosabatlarning ahamiyati hamda debitor va kreditor qarzdorlikni boshqarish usullari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, debitor va kreditor qarzdorlikning yuzaga kelish sabablari haqida tashqi ma'lumotlar keltiriladi hamda korxonalarining to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligini ta'minlashga oid tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: debitor qarzdorlik, kreditor qarzdorlik, samarali faoliyat, majburiyatlar, shubhali qarzlar, bankrotlik, moliyaviy hisobot, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar.

Abstract: Solving problems related to ensuring the efficiency of enterprise activities largely depends on the organization of the methodology for accounting receivables in settlements with buyers, clients, other business entities, and individuals, as well as the level of its effective use. This article analyzes the significance of economic relations and the methods of managing receivables and payables. In addition, external information is provided about the causes of receivables and payables, and recommendations are given to ensure the solvency and financial stability of enterprises.

Key words: receivables, payables, effective activity, liabilities, doubtful debts, bankruptcy, financial statements, foreign direct investment.

Аннотация: Решение проблем, связанных с обеспечением эффективности деятельности предприятия, во многом зависит от организации методологии учёта дебиторской задолженности в расчётах с покупателями, клиентами, другими хозяйственными субъектами и физическими лицами, а также от уровня её эффективного использования. В статье анализируется значение экономических отношений и методы управления дебиторской и кредиторской задолженностью. Кроме того, приводятся внешние данные о причинах возникновения дебиторской и кредиторской задолженности и даны рекомендации по обеспечению платёжеспособности и финансовой устойчивости предприятий.

Ключевые слова: дебиторская задолженность, кредиторская задолженность, эффективная деятельность, обязательства, сомнительные долги, банкротство, финансовая отчётность, прямые иностранные инвестиции.

KIRISH

Hozirgi bosqichda iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish hisob tizimini qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Bu tizimning asosiy elementlaridan biri — hisobga olish yozuvlaridir. Debitor qarzdorlik holati har qanday sohadagi va mulk shaklidagi korxona uchun muhim hisoblanadi. Korxona faoliyati samaradorligini ta'minlash bilan bog'liq muammolarni hal etish, asosan, xaridorlar, mijozlar hamda boshqa xo'jalik subyektlari va jismoniy shaxslar



bilan debitor qarzlarni hisobga olish metodologiyasini tashkil etish va undan samarali foydalanish darajasiga bog'liq.

Hozirgi iqtisodiyotda debitor qarzdorlik hajmining o'sishi muammosi juda keskin. Bu esa, o'z navbatida, shubhali va yomon qarzlarning ko'payishiga hamda to'lovsizlik inqirozining kuchayishiga olib keladi. Bu holat korxona sotuvidan tushumlarning chiqib ketishiga, natijada uning to'lov qobiliyati va likvidligining pasayishiga, ishlab chiqarish hajmining kamayishiga va bankrotlik xavfining oshishiga sabab bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Savdo krediti va uning iqtisodiy mohiyati borasida an'anaviy yondashuvlarni Ferris 1981-yilda aniqlashtiradi; u savdo kreditini tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va tovarlar bilan pul almashinuvi orasidagi noaniqliklarni yumshatish vositasi sifatida tushuntiradi. Ferris 1981-yildagi tahlillari debitor qarzdorlik va kreditor majburiyatlarni boshqarishda omonat va inventar nazorati munosabatlarini ko'rsatadi hamda firmalararo kreditni zanjir ichidagi likvidlikni pooling qilish mexanizmi sifatida talqin qiladi.

Savdo kreditining moliyaviy va operatsion motivlari haqida Emery 1984-yilda asosiy hissa qo'shadi; u trade kreditni to'liq moliyaviy izoh bilan talqin qilib, sotuvchi uchun operatsion moslashuvchanlik va kapitallashuv nuqtayi nazaridan izohlaydi. Emery 1984-yilgi fikricha, debitor siyosati orqali sotuvchilar talab o'zgarishlariga tez javob berish va likvidlikni boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa debitorlar va kreditorlar o'rtasidagi boshqaruv strategiyalarini shakllantiradi.

Nazariy va empirik tadqiqotlarda trade kreditning roliga nisbatan kengroq ramkani Petersen va Rajan 1997-yilda taklif etadi; ular savdo kreditining bank kreditiga alternativ yoki komplementar manba sifatida ishlatilishini va ayniqsa kichik yoki moliyaviy cheklovlariga duch keladigan firmalar tomonidan undan ko'proq foydalanilishini ko'rsatadi. Petersen va Rajan 1997-yildagi natijalar shuni ko'rsatadiki, firmalarning bank kreditiga kirish imkoniyati cheklanganda, yetkazib beruvchilar tomonidan beriladigan kreditlar o'sib, tarmoq ichida likvidlik ta'minotida muhim rol o'ynaydi.

Debitorlarni boshqarish va factoring kabi instrumentlar nazariyasi ham muhim o'rin tutadi. Mian va Smith 1992-yilda accounts receivable siyosatining tanlovi hamda factoring va captive finance kabi mexanizmlarning firmalarga qanday moslashishini nazariy va empirik jihatdan tahlil qiladi. Mian va Smith 1992-yilga ko'ra, yirik firmalar ichki kredit ma'muriyatiga sarmoya kiritib, factoring va xavfsiz qarz variantlarini tanlagan bo'lsa, kichik firmalar ko'pincha tashqi factoringdan foydalangan. Ushbu tadqiqot korxonalarda debitor va kreditor pozitsiyalarini boshqarish strategiyalarini operatsion imkoniyatlar va moliyaviy cheklovlar nuqtayi nazaridan tushunishga yordam beradi.

Vendor financing va narx diskriminatsiyasi mavzusida Brennan, Maksimovic va Zechner 1988-yilda olib borgan tadqiqotida yetkazib beruvchilar tomonidan kredit shartlari orqali mijozlarni segmentlash va narxlash strategiyasini qo'llash mumkinligi ko'rsatiladi. Brennan va hammualliflarning 1988-yildagi natijalari savdo kreditining faqat likvidlik ta'minoti emas, balki bozorda strategik instrument ekanligini ochib beradi. Bu esa korxona moliyaviy siyosatini ishlab chiqishda qarzdorlik strukturasi va mijoz portfeli tahlilining zarurligini ta'kidlaydi.

So'nggi empirik tadqiqotlar trade credit va makroiqtisodiy shoklar, kredit cheklovlari hamda firmalar tarmog'idagi likvidlik tarqalishi o'rtasidagi munosabatni batafsil o'rgangan. Masalan, Choi 2005-yil va Fabbri 2010-yildagi tadqiqotlar pul-kredit siyosati qattiqlashganda ham savdo kreditining firmalar darajasida muvozanatni saqlashda qanday o'rin tutishini namoyish etadi. Shuningdek, debitor va kreditor balanslarining o'zgarishi korxona qiyinchiliklarini yumshatishi mumkinligini ko'rsatadi.

Amaliy xulosalar literaturadan quyidagicha kelib chiqadi: debitor va kreditor qarzdorlik siyosatini ishlab chiqishda nazariy modellar (Ferris 1981-yil, Emery 1984-yil, Brennan va hammualliflari 1988-yil) va empirik natijalar (Mian va Smith 1992-yil, Petersen va Rajan 1997-yil, Choi 2005-yil) bir-birini to'ldiradi. Korxona darajasida qarorlar qabul qilishda kredit siyosatining tanlovi nafaqat likvidlik va rentabellik o'lchovlariga bog'liq, balki sanoat amaliyoti, banklarga kirish imkoniyati va mijozlar bilan strategik munosabatlarga ham tayanadi. Shu sababli, amaliy tadqiqotlar va korporativ siyosatlar debitorlar bilan ishlashda aniq kredit siyosatini, monitoring mexanizmlari va shartnoma vositalarini (masalan, factoring, xavfsiz kreditlar) integratsiyalashga e'tibor qaratishni tavsiya qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi korxonalarda debitor va kreditor qarzdorlikni boshqarish jarayonlarini o'rganishda statistik hisobotlar, moliyaviy ko'rsatkichlar hamda korxona balanslaridan olingan ma'lumotlarga asoslanadi. Ushbu ma'lumotlar tahlili uchun qiyosiy usul, dinamik qatorlar va moliyaviy koeffitsiyentlar qo'llanilib, qarzdorlikning hajmi, tarkibi va ta'sirini aniqlash imkoniyati yaratildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini moliyalashtirishda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalasi, shuningdek, davlatning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishi kafolati ostida olingan uzoq muddatli (20–40-yil) imtiyozli kreditlarni (ayniqsa, 0,5–2 foiz miqdorida) jalb qilish masalasi bugun juda dolzarb hisoblanadi.

Investitsiyalar import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirishga, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari sonini ko'paytirishga, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish hisobiga yangi ish o'rinlari yaratishga va iqtisodiyot diversifikatsiyasi darajasini oshirishga safarbar etilishi lozim.

Korxonalar o'rtasida, shuningdek, kredit tashkilotlari va nazorat organlari o'rtasida to'lovlarni kechiktirish bo'yicha hisob-kitob daftarlarida farqlar yuzaga keladi. Bu holatda korxona tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan majburiyatlar — kreditor majburiyatlari, korxona tomonidan olinishi kerak bo'lgan majburiyatlar esa — debitor majburiyatlari hisoblanadi.

Debitor va kreditor qarzdorlik majburiyatlari quyidagicha talqin qilinadi:

- Kontragentga to'lanishi kerak bo'lgan majburiyatlar — kreditor majburiyatlari;
- Kontragentdan undirilishi kerak bo'lgan majburiyatlar — debitor majburiyatlari.

Debitor va kreditor qarzdorlik majburiyatlari har qanday hisob-kitob daftarining doimiy hamrohi hisoblanadi. Biroq ularning to'lov muddatining uzayishi korxonalarning moliyaviy holatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, korxona faoliyatida debitor va kreditor qarzdorlikni to'g'ri boshqarish masalasiga alohida ahamiyat beriladi.

O'z vaqtida undirilmagan debitor qarzdorlikni oldini olish ham davlat nazorati va e'tibori doirasiga kiradi. Chunki korxonalar va tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda majburiyatlarning klassifikatsiyasiga asoslanib, davlat naqd pul aylanmasini boshqaradi va iqtisodiy faoliyat rejasi tuziladi.

Debitor qarzdorlikdan keladigan mablag'lar ishlab chiqarish korxonasi uchun asosiy moliya manbalaridan biri hisoblanadi. Agar xaridorlar o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmasa, korxonada pul mablag'lari taqchilligi yuzaga keladi, aylanma mablag'larga ehtiyoj ortadi va uning moliyaviy ahvoli yomonlashadi.

Bu esa, o'z navbatida, korxona va mijozlar o'rtasidagi hisob-kitob munosabatlarini o'zgartirish, kredit va qarzlarni bartaraf etishga qaratilgan maqbul siyosat ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

Debitor qarzdorlik korxonada naqd pul mablag'larining kamayishiga olib keladi, bu esa ishlab chiqarish jarayoni uzluksizligining buzilishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun debitor qarzdorlik ustidan doimiy nazorat o'rnatish muhim ahamiyatga ega. Undirilmagan debitor qarzdorlik bo'yicha qarzdorlarga nisbatan sanksiyalar yoki javobgarlik choralari qo'llash boshqaruvda katta ahamiyat kasb etadi.

Debitor va kreditor qarzdorlikning yuzaga kelish sabablari:

• Bir tizimga qarashli korxonalar o'rtasida zanjirli bog'lanish mavjudligi (masalan, davlat xaridi asosida yetishtirilgan mahsulotlarni davlatga topshirish va davlat tomonidan xo'jalik subyektlariga zarur moddiy resurslarni yetkazib berish);

• Korxonalarda moliyaviy beqarorlikning yuzaga kelishi;

• Debitor va kreditor qarzdorlikka ta'sirning pastligi (masalan, qarzdorlik bo'yicha jarimalarning kamligi yoki sun'iy ravishda ortib borishi);

• Iqtisodiy beqarorlikning yuzaga kelishi;

• Oldindan to'lovlarning qo'llanilishi.

Debitor qarzdorlikni boshqarishni kompaniyaning aylanma mablag'larni boshqarish umumiy siyosatidan ajratmasdan kiritish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, debitor qarzdorlikni boshqarish kompaniyaning marketing siyosati bilan ham uzviy bog'liq bo'lishi kerak.

Debitor qarzdorlik tarkibi:

• Xaridor va mijozlar qarzi;

• Olingan hisob-fakturalar;

• Filial va bo'limlar qarzi;

• Oldindan berilgan avanslar;

• Boshqa debitor qarzdorlik.

Debitor qarzdorlikni boshqarishda qaratilgan asosiy masalalar:

• Debitor qarzdorlik uchun aniq limit va standart belgilash;

• Iste'mol va tijorat kreditlari bo'yicha maxsus sxemalar ishlab chiqish (to'lov taqvimlarini tayyorlash);

• Xaridorlar bilan hisob-kitobning maqbul shaklini tanlash: oldindan to'lov, akkreditivdan maksimal foydalanish (akkreditiv — tijorat bankida shartnoma qiymatiga teng summada maxsus hisob ochish orqali to'lovni kafolatlash);

• Debitor qarzdorlikni muddatlar bo'yicha tasniflash;

• Debitor qarzdorlikni diversifikatsiya qilish (faqat bir nechta xaridorga emas, balki ko'plab subyektlar bilan yirik hajmda hamkorlik qilish).



Bundan tashqari, quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- Debitor qarzdorlikning korxona moliyaviy barqarorligiga ta'sirini doimiy monitoring qilish, debitor va kreditor qarzdorlik nisbatini nazorat qilish;
- Debitor qarzdorlikka ta'sir ko'rsatish choralari belgilash, ya'ni shartnomada ko'rsatilgan muddatdan oldin to'lov qilinsa chiqimlar berish, aks holda, kechiktirilgan debitor qarzdorlik uchun jarimalar qo'llash (ikkalasi ham shartnomada belgilanadi);
- Debitor qarzdorlik ehtimoli past bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish dasturlarini oshirish, aksincha ehtimoli yuqori bo'lgan mahsulot hajmini kamaytirish;
- Faktoring operatsiyalaridan foydalanish (debitor qarzdorlikni tijorat banklariga arzon narxda sotish amaliyoti).

Bundan tashqari, har qanday xo'jalik yurituvchi subyektlar nazoratda faqat debitor qarzdorlikka emas, balki kreditor qarzdorlikka ham e'tibor qaratadi. Shu sababli qarzdorlik harakati ustidan nazoratning asosiy vazifalaridan biri — debitor qarzdorlik darajasini kreditor qarzdorlikdan oshirmaslikdir.

Kreditor qarzdorlik tarkibi:

- Ta'minotchi va pudratchilar qarzi;
- To'lanishi lozim bo'lgan hisob-fakturalar;
- Ish haqi bo'yicha qarzlar;
- Budget oldidagi qarzlar;
- Olingan oldingi to'lovlar;
- Boshqa kreditor qarzdorlik.

Korxonaning to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligini saqlab qolish uchun kreditor qarzdorlikni boshqarishda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- Uzoq muddatli kreditlar hisobiga amalga oshiriladigan loyihalar samaradorligini oldindan baholash;
- Kreditor va debitor qarzdorliklarni miqdor va muddat jihatidan o'zaro muvofiqligini ta'minlash;
- Kreditor qarzdorliklarni o'z vaqtida to'lash maqsadida to'lov taqvimlarini ishlab chiqish;
- Shartnoma munosabatlarini to'g'ri tashkil etish (masalan, mahsulot sotish bo'yicha debitor qarzdorlik oy yoki chorak oxirida shakllansa, unga mos ravishda kelasi oy yoki chorak boshida soliq to'lovlari bo'yicha kreditor qarzdorlik paydo bo'ladi).

Kreditor qarzdorlikni yagona dastur va nazorat bilan bartaraf etib bo'lmaydi. Buning uchun kompleks dastur ishlab chiqish zarur.

Bizning fikrimizcha, debitor-kreditor majburiyatlarining ortiqcha o'sishini oldini olish maqsadida quyidagi choralarni amalga oshirish maqbul:

- O'zaro shartnoma munosabatlarida tomonlarning javobgarligini belgilash va shartnoma shartlariga qat'iy rioya qilish;
- Har qanday muddatidan kechiktirilgan to'lov summasi uchun huquqiy javobgarlik shartlarini aniq belgilash;
- Hisob-kitob daftarida zamonaviy shakllardan foydalanish;
- Shubhali qarzlar uchun rezervlar tashkil etish mexanizmlarini ishlab chiqish va boshqalar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, korxonalarda debitor va kreditor qarzdorlikni samarali boshqarish moliyaviy barqarorlik va likvidlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qarzdorlik darajasining ortishi moliyaviy oqimlarning izchilligini buzishi, to'lov qobiliyatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, qarzdorlikni nazorat qilish va uni optimallashtirish mexanizmlarini joriy etish, korxona faoliyatida risklarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Sohaning rivojlanishi uchun korxonalarda hisob-kitob intizomini kuchaytirish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib qarzdorlik monitoringi va prognozini yo'lga qo'yish muhimdir. Shuningdek, kreditor va debitorlar bilan shaffof hamkorlikni yo'lga qo'yish, davlat darajasida moliyaviy intizomni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy va institutsional islohotlarni davom ettirish tavsiya etiladi. Bu nafaqat moliyaviy muvozanatni yaxshilaydi, balki korxonalar o'rtasidagi ishonchni kuchaytirib, iqtisodiy tizimning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. — Т.: Ўзбекистон.
2. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси. — Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ нашриёти, 2008.
3. Ўзбекистон Республикасининг "Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида"ги Қонуни.
4. Ваҳабов А.В. ва бошқалар. Президент И.А. Каримовнинг "Жаҳон молиявий ва иқтисодий инқирози, уни Ўзбекистон шароитида бартараф этиш йўллари ва чоралари" номли асарини ўрганиш бўйича қўлланма.
5. Ваҳабов А.В., Иброҳимов А.Т., Ишанқулов Н.Ф. Молиявий ва бошқарув таҳлили. Дарслик. — Тошкент: Шарқ, 2005. — 480 б.
6. Ҳасанов Б.А. Бошқарув ҳисоби: назария ва методология. — Тошкент.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
